

## TOPISHMOQ-PAREMIOLOGIK JANR SIFATIDA

*Usmonova Nilufar Suvon qizi*

*O'zDJTU Fransuz tili nazariy fanlar kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Paremiologiya tushunchasi grekcha paranomia – “hikmat” va logos – “ta’limot” so’zlaridan olingan bo’lib, xalq og’zaki ijodiga tegishli maqol, matal, aforizm, topishmoq kabi hikmatli iboralarni o’rganuvchi tilshunoslik sohasi hisoblanadi. Ya’ni muayyan bir xalqning turmush tarzi, hayot yo’li, kishilarning jamiyatga bo’lgan munosabatini, kuzatishlar va hayotiy tajribalarga tayangan holda chiqarilgan xulosalarni ifodalovchi ruhiy holati, etik va estetik tuyg’ularini, ijobiy fazilatlarini o’zida mujassamlashtirgan, avloddan avlodga og’zaki shaklda ko’chib yuruvchi, ixcham, sodda, qisqa va lo’nda mazmundor mantiqiy umumlashma shaklida paydo bo’lgan maqol, matal, aforizm, topishmoq kabi hikmatli so’z va iboralarni ya’ni paremalarni o’rganuvchi tilshunoslik sohasi Paremiologiya deyiladi.

**Kalit so’zlar:** Paremiologiya, parema, topishmoq, lug’z, chiston, ma’no, taqqoslash, hikmatli ibora

**Annotation :** Le terme “parémiologie” vient du grec “paranomia” – “sagesse” et “logos” – “enseignement”. C’est une branche de la linguistique qui étudie les expressions pleines de sagesse issues de la tradition orale populaire, telles que les proverbes, les dictons, les aphorismes et les devinettes. Autrement dit, la parémiologie s’intéresse aux unités linguistiques qui reflètent le mode de vie d’un peuple, sa vision du monde, ses relations sociales, ses observations et expériences de vie. Ces formes brèves, simples et concises de généralisation logique transmettent des états d’âme, des sentiments éthiques et esthétiques, ainsi que des qualités morales, et sont transmises oralement de génération en génération.

**Mots-clés :** Parémiologie, parémie, devinette, énigme, sens, comparaison, expression sage

**Аннотация:** Термин “паремиология” происходит от греческих слов “paranomia” — “мудрость” и “logos”— “учение”. Это область лингвистики, изучающая мудрые выражения устного народного творчества, такие как пословицы, поговорки, афоризмы, загадки. Паремиология исследует речевые единицы, которые отражают образ жизни народа, его отношение к обществу, наблюдения и жизненный опыт, выражающие духовное состояние, этические и эстетические чувства, положительные качества. Эти краткие, ёмкие и логически обобщённые формы передаются из поколения в поколение в устной форме.

**Ключевые слова:** Паремиология, паремия, загадка, смысл, сравнение, мудрое выражение

**Tadqiqot metodlari:** Ushbu maqolani yozishda topishmoq janrining paremiologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish maqsadida bir nechta ilmiy yondashuvlardan foydalanildi.

Birinchiidan, tavsifiy metod orqali topishmoqlarning shakl, mazmun, obrazlar tizimi hamda janrga xos belgilari aniqlanib, ularning umumiy qiyofasi, mohiyati hamda tarixiy kelib chiqish jarayoni ochib berildi. Ikkinchiidan, qiyosiy tahlil yordamida har ikki xalq og‘zaki ijodiga tegishli topishmoqlar o‘zaro solishtirilib, ularning umumiy va mahalliy xususiyatlari o‘rganildi. Shuningdek struktural tahlil asosida topishmoqlarning tuzilishi, badiiy shakllanishi, formulaviy ifoda vositalari tahlil qilindi.

Mazkur metodlar orqali topishmoqning nafaqat badiiy-ma’naviy ahamiyati, balki ularning paremiologik birlik sifatidagi funksional jihatlari ham ilmiy asosda yoritildi.

**Kirish qismi:** Paremiologiya — xalq og‘zaki ijodining qisqa bo‘lsada mazmunga boy so‘zlashuv shakllarini o‘rganuvchi fan. Bunga maqollar, matallar, hikmatli iboralar va topishmoqlar kiradi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, topishmoq ham paremiologik janr sifatida e’tirof etiladi. Chunki u ham har bir xalqning donoligi, fikrlash madaniyati, bilimi va estetik didining ifodasidir.

Topishmoqlarda nafaqat mantiqiy fikrlash, balki poetik obrazlilik, so‘z o‘yini, she’riy qurilish kabi elementlar ham mavjud. Bu esa ularning badiiy qiymatini oshiradi va ularni nafaqat bolalar uchun, balki kattalar uchun ham qiziqarli va o‘rgatuvchi vositaga aylantiradi. Topishmoq orqali xalq o‘zining dunyoqarashi, hayot falsafasi va ma’naviy qadriyatlarini ifodalagan.

**Asosiy qism:** Maqol, matal, topishmoq va aforizm kabi hikmatli iboralar tizimi jahon va o‘zbek tilshunosligida paremiologik birliklar sifatida qaraladi, ular inson tafakkurining eng sara durdonalaridan sanaladi. Paremiologik birliklar tizimidagi bunday birliklar “insonlar turmush tajribalariga suyanish asosida chiqarilgan xulosalarni ifodalovchi, xalqning jamiyatga munosabati, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashtirgan, avloddan-avlodga og‘zaki ba’zan yozma shaklda ko‘chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmunli mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo‘lgan...”.[ Berdiyev H., Rasulov R.,1984]

Muayyan tilda mavjud bo‘lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralar — paremlar tizimi deyiladi. Paremlarning aksariyati ko‘pincha she’riy shaklga o‘xshaydi va ularda o‘xshatish, antiteza, anafora, alliteratsiya, kinoya, piching kabi bir qancha badiiy tasvir vositalari qo‘llaniladi. Shu bilan birga paremlar so‘zlardan tuzilib, ma’lum bir fikrni ifodalovchi gaplardan iborat bo‘lgani uchun tilshunoslikning ham o‘rganish ob’yekti hisoblanadi. Paremlar ana shu ikki jihatni o‘zida birlashtiradi. Paremlarning kelib chiqishi, tarixan rivojlanishi va ma’no xususiyatlarini o‘rganish frazeologiya bilan chambarchas bog‘liq. Paremlar - tilda mavjud bo‘lgan turli xildagi barcha iboralarni o‘rganadi, frazeologiya esa uning bir qismi sifatida faqat ko‘chma

ma'noli turg'un birikmalarni o'rganadi. Shu jihatdan ular o'zaro farqlanadi. O'rganish ob'yektining birligi, ya'ni bir necha so'zdan tashkil topgan turg'un, barqaror birikmalarni tekshirish paremlar bilan frazeologiyaning o'xshash, umumiy tomoni hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida Paremlarni to'plash, o'rganish Mahmud Koshg'ariy (“Devonu lug'otit turk”) va Gulxaniy (“Zarbulmasal”) zamonlaridan to hozirgi kunlargacha davom etib kelmoqda.

O'zbek folklorida maqol, tabu va topishmoq singari janrlar hikmatga yo'g'rilganligi, g'oyat ixcham, siqiq, lo'nda va obrazli ifodalanishi bilan xalq paremik ijodini tashkil qiladi. Biroq u hanuzgacha alohida adabiy tur sifatida e'tirof etilmay, ba'zan xalq nasri, ba'zida esa xalq poeziyasi va frazeologiyaning bir qismi sifatida e'tiborga olib kelinmoqda. Vaholanki, maqollar xalqning necha ming yillar davomida turmush tarzida sinalib, anglangan haqiqatlar ixcham ahloqiy baho sifatida umumlashtirilsa, tabularda xuddi shu ahloqiy baho taqiq holatida namoyon bo'ladi.

Topishmoqlar xalqning turmush tarzi va qadimiy e'tiqodlari ifodasi sifatida yuzaga kelgan. Ular shartli nutq natijasida qadimiy ajdodlarimizning ibtidoiy animistik va totemistik qarashlari shakllana boshlagan davrlarda—“insoniy shuur endigina uchqunlana boshlagan zamonlarda” (F.I.Buslayev) paydo bo'la boshlagan. Qadimgi ajdodlarimiz tabiat stixiyasi oldidagi ojizliklari tufayli narsalarni, odamlarni, hayvonlarni, qushlarni o'z nomlari bilan aytmay, ularni g'ayritabiiy kuchlar zararidan, insu jinlar va balo-qazolardan omon saqlashni ko'zlab, boshqa so'zlar bilan pardali qilib ayta boshlashlari tufayli ilk topishmoqlar yuzaga kelgan, buning izlarini hozirgi o'zbek topishmoqlarida ham kuzatish mumkin. Predmetli topishmoqlarda yashiringan aniq narsaning individual xususiyatlari lo'nda, siqiq, sodda va tushunarli tarzda badiiy so'z vositasida chizib beriladi. Ularda borliqdagi narsalarning o'zaro o'xshashligi va yaqinligi to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Shu ma'lumotlar yordamida inson tevarakatrofidagi narsa-hodisalarning serqirraligini his qiladi. Predmetli topishmoqlarda yashiringan narsaning miqdori muhim rol o'ynaydi. Shu xususiyatiga ko'ra topishmoqlar ikki turkumga ajratiladi: 1. Bir predmetli topishmoqlar. Bu xildagi topishmoqlarda birgina narsa jumboqlanadi: jumboq ham bitta, javob ham bittadir:

a) *“Yer tagida oltin qoziq”, (sabzi)*

*“Je suis plus utilisé quand je suis cassé, qui suis-je ?(un oeuf)*

b) *Ikki, uch, to'rt satrli topishmoqlar ham bo'lishi mumkin:*

*Tap-tap etadi,*

*Tagidan karvon o'tadi.*

*Nous sommes des dames et nous nous trouvons ensemble les unes aux côtés des autres et quand il pleut, nous pleurons à l'unisson, qui sommes-nous ?(Les tuiles)*

2. Ko'p predmetli yoki murakkab topishmoqlar. Yuqorida ko'rilganidek, hamma birlashgan topishmoqlar ham bir predmetli bo'lavermaydi :

Masalan: Tog‘da talaymonni ko‘rdim, Suvda sulaymonni ko‘rdim. Tuzsiz pishgan oshni ko‘rdim, Yumalab yotgan toshni ko‘rdim,- topishmog‘ining har bir satri mustaqil bir jumboq bo‘lib, ko‘p predmetlilik xususiyatini kasb etgan. Bu murakkab topishmoqda *bir yo‘la to‘rt narsa–bo‘ri, baliq, sumalak va toshbaqa* jumboqlangan. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, aslida topishmoqlar har gal bir predmetli shaklda jumboqlanib yuzaga kelgan bo‘lsa-da, og‘zaki ijro jarayonida vaqt o‘tishi bilan yangi-yangi jumboqlanishlar evaziga murakkablasha borib, ko‘p predmetlilik xususiyatini kasb etishgan.

Topishmoqdagi ijtimoiy motiv mohiyatini ana shu istehzo tashkil etadi. Yaratilish davri va mazmuniga ko‘ra topishmoqlarni ikki guruhga ajratish mumkin: *An’anaviy topishmoqlar* – xalqning uzoq o‘tmishiga dahldor topishmoqlar silsilasi hisoblanadi. Ularda ajdodlarimizning butun o‘tmishi davomidagi turmush tarzi, ijtimoiy-estetik qarashlarini ifodalovchi narsa va hodisalar jumboqlangan. Topishmoqlar yordamida el-u yurtga boshliq (podshoh) tanlangan, jang-u jadallarda jang qiluvchi tomonlar lashkarboshilarining topishmoqqa bergan javobining to‘g‘ri yo noto‘g‘riligiga qarab, g‘olib belgilangan va ortiqcha qon to‘kishlar oldi olingan. O‘shanda topishmoq javobini topolmagan tomon “shahar berdim” deb yengilganini tan olgan va g‘olib istagan shahar, yo qishloqni o‘z mamlakatiga qo‘shib olgan. Hozirgacha topishmoq shartini topolmay yutqizganda “shahar berdim” deyishlari shundan qolgan. Hatto yigit-qizlarning bir-birlariga munosib umr yo‘ldoshi tanlashlarida ham topishmoqlar bo‘lajak kuyov uchun aql sinovi shartiga aylangan. Bu mulohazalarni xalq og‘zaki ijodidagi ayrim afsona va ertaklar ham tasdiqlaydi.

Xullas, an’anaviy topishmoqlar qadimiy qadriyatlarimizning betakror badiiy namunalari hisoblanadi, ulardan o‘tmishdagi ajdodlarimizning ijtimoiy hayotdan orttirgan asriy tajribalari, tevarak-atrof va borliqqa doir fikr-mulohazalari, mushohadalarini bilib olish mumkin. *Yangi topishmoqlar*: Bular bevosita an’navay topishmoqlar ta’sirida yaratilgan bo‘lib, ularga xos an’anaviy shakl, badiiy usullar va jumboqlanish uslubini, asosan, saqlab qolgan. Ularda hamisha zamonaviy mavzuga murojaat yetakchilik qiladi. Bu esa topishmoq janri qismatida davomiylikni ta’minlagan omil hisoblanadi. Ularni aytishga xalq muayyan tartib-qoidaga, taqvimga rioya qilgan, chunki topishmoqlarni sehrlil so‘z hosilasi deb tushungan.

Topishmoqlar yozma badiiy adabiyotga ham samarali ta’sir ko‘rsatib, mumtoz she’riyatda lug‘z, chiston, muammo, ta’rix va muvashshah singari janrlarning yuzaga kelishiga ta’sir ko‘rsatgan bo‘lib, XX asrda o‘zbek bolalar she’riyatida adabiy topishmoqlar yozishning an’anaviy tus olishini ta’minladi. Bu yo‘nalishda Jahon otin Uvaysiy, Gafur Gulom singari zabardast shoirlar boshlagan an’anani Shukur Sa’dulla, Ilyos Muslim, Adham Rahmat, Po‘lat Mo‘min, Safar Barnoyev, Tursunboy Adashboyev, Rauf Tolib va S.G‘afurov singari bolalar adabiyotining turli avlodiga mansub ijodkorlar davom ettirmoqdalar.

Alisher Navoiy merosida ham xalq og‘zaki ijodi janrlarining stilizatsiyasi natijasida yuzaga kelgan janrlar mavjud bo‘lib, ular orqali folklor buyuk shoir ijodining muhim manbalaridan biri sifatida baholanishiga imkon beradi. Ana shunday janrlardan biri lug‘z yoki chistondir. Shoir ijodida chiston, lug‘z deb nomlanuvchi adabiy topishmoqlar alohida o‘rin tutadi. Ular xalq paremik janrlaridan biri bo‘lgan topishmoqlarning janriy belgilarini: shakli va poetik ifoda xususiyatlarini uslublashtirish asosida yaratilganligi bilan e‘tiborni tortadi.

“Lug‘z” arab tilidan o‘zlashtirilgan so‘z bo‘lib, “topishmoq”, “sir” ma‘nolarini anglatadi. Turkiy xalqlar og‘zaki ijodida “topishmoq” tarzida nomlangan mazkur janr fors-tojik tilida “chiston” deb yuritiladi. Xullas, adabiy topishmoqlar yozma adabiyotga lug‘z, chiston nomlari bilan kirib kelgan. Aytish mumkinki, turkiy adabiyotda lug‘z janrining ilk namunalarini Navoiy ijodida uchraydi [Adizova, 2008:11].

Topishmoqlarda ham, lug‘zlar matnida ham yashiringan narsa nomini topish vazifasi qo‘yiladi. Ta‘kidlash kerakki, topishmoqlardagi savollar tizimi yashiringan narsa-buyum xususiyatlarini sanash tarzida yuzaga chiqariladi. Bu esa topishmoqni topadigan shaxsdan ziyalik, topqirlik va zukkolikni talab qiladi.

Topishmoqlarda jonli va jonsiz mavjudot, narsa va hodisalarni bir-biriga solishtirish, taqqoslash, o‘xshatish orqali atrofni o‘rab turgan olamni bilishga, anglashga, fikr qilishga undalgan. Lug‘zlarda ham xuddi shu xususiyat saqlanib qolgan. Biroq lug‘z ma‘lum muallifning ijod mahsuli bo‘lganligi uchun unda ijodkor shaxsi va dunyoqarashining aksini ko‘rish tabiiy.

**Tahlil va natijalar:** Topishmoqlarda xalqning narsa va hodisalarga oid qarashlaridan iborat haqiqat o‘sha narsa va hodisalar asliyatga xos yetakchi belgilarini epitetli ixcham iboralar shaklida aks ettiradi.

Paremiologik topishmoqlarning asosiy xususiyatlari:

1. Qisqalik va obrazlilik: Topishmoqlar qisqa, mazmunan teran bo‘lib, obrazlar va timsollar orqali ma‘nolarni yashirishga urinadi.

2. Ramziy ma‘no: Topishmoqlarda biror narsa yoki hodisa bevosita aytilmaydi, balki uning xususiyatlari orqali ramziy ifoda qilinadi. Javobni topish uchun o‘xshatish va bog‘liqlikni topish talab qilinadi.

3. O‘yin elementlari: Topishmoqlar ko‘pincha o‘yin shaklida, ya‘ni savol-javob tarzida aytiladi va madaniy hayotda o‘yin elementlari bilan boyitiladi.

4. Tarbiya va didaktik rol: Topishmoqlar orqali kattalar bolalarni o‘ylashga, atrof-muhitni teranroq tushunishga o‘rgatadi.

**XULOSA:** Topishmoq kishilarning tafakkurini charxlash, kuzatuvchanligini oshirish va bilimi orqali topqirlikni aniqlash maqsadida yaratilgan. Topishmoqlarda narsa-hodisalar bevosita aytilmaydi, balki ramziy, o‘xshatishli, kinoyali yo‘l bilan ifodalanadi. Aynan shu jihati bilan topishmoqlar inson tafakkurini harakatga keltiradi va uni topishga undaydi.

Topishmoqlar, ko‘pincha bolalar tarbiyasida, xalq o‘yinlarida, marosimlarda yoki savol-javob tarzidagi suhbatlarda keng qo‘llanilgan. Topishmoqlarning ko‘pchiligi hayotiy tajriba, tabiat hodisalari, hayvonot, o‘simliklar dunyosi, mehnat qurollari va kundalik hayot bilan bog‘liq.

Topishmoq xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos janri bo‘lib, paremeologik birlik sifatida o‘rganiladi. Paremiologiya — maqollar, topishmoqlar, iboralar kabi qisqa shakldagi xalq donoligi namunalarini tadqiq qiladigan fandır. Topishmoqlar xalqning hayotiy tajribasini, dunyoqarashini va kundalik hayotini umumlashtirib, ramzlar, allegoriyalar va metaforalar, istioralar orqali ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, topishmoqlar paremeologik janr sifatida xalq tafakkuri, bilimi, estetik qarashlari va madaniy merosining muhim ko‘zgusi bo‘lib xizmat qiladi. Ular yosh avlodni o‘ylashga, topqir bo‘lishga, tabiatni, odamlarni va hayotni chuqur anglashga undaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Arzamaseva I.N., Nikolayeva S.A. Detskaya literatura. M., “Akademiya”, 2000.
2. Berdiyurov H., Rasulov R., Uzbek tilining paremiologik lug‘ati, T., 1984.
3. Berdiyurov X., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1984. – Abduvahob Madvaliyev. 288 b;
4. “bilmece.” Webarxiv andozasida xato: |url= qiymatini tekshiring. Bo‘sh. Güncel Türkçe Sözlük. Türk Dil Kurumu. Erişim: 8 Aralık 2011.
5. Masharipova.Z.O‘zbek poremik janrlar (O‘quv qo‘llanma) Bakalavriat yo‘nalishi: 5141100 – O‘zbek tili va adabiyoti.Toshkent. 2007
6. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
7. Shomaqsudov Sh. Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. Toshkent, - 1990.
8. O‘zbek bolalar adabiyoti antalogiyasi. Ikki jildlik. 1-2-jild.T., “O‘qituvchi”, 2006.
9. Арзамасцева И.Н., Николаева С.А. Детская литература. М.:Академия, 2000. 10. Белинский В.Г., Чернишевский Н.Г., Добролюбов Н.А. О детской литературе. – М., Дет.лит. 1983